

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASIDA IJTIMOY SOHA TARAQQIYOTI TARIXI

Namazov Sohibjon Elmuradovich

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ijtimoiy soha tushunchasi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani rivojlantirish, vohada ijtimoiy soha taraqqiyoti tarixi xususida to'xtalib o'tildi.

Kalit so'zlar: moddiy, mehnat, moliyaviy, ishlab chiqarish, samaradorlik, taqsimot, ijtimoiy mehnat

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy soha xodimlarining moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar faoliyatiga qo'shayotgan hissalarini yuqori darajaga ko'tarilmoqda. SHuning uchun ham ijtimoiy sohani rivojlantirishga davlatning salmoqli ulushdagi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslari sarflanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohalari xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, san'at va madaniyat, ilm-fan, jismoniy tarbiya va sport, ilmiy izlanishlar, davlat boshqaruvi, mudofaa, maishiy xizmat kabi sohalarni qamrab oladi. Bularsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur qilish mumkin emas. CHunki bu soha xodimlari mehnatning umumiy yo'nalishi inson va jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy rivojlanishi uchun qaratilgan.

Ijtimoiy soha faoliyatining tarixiga murojaat qilsak, dastlabki davrlarda uning insoniyat taraqqiyotida egallagan ulushi nihoyatda kamligining guvohi bo'lamiz. Hozirda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi, aholi ijtimoiy va madaniy ehtiyojining rivojlanishi ijtimoiy mehnat taqsimotida ijtimoiy sohaning yirik tarmoqqa aylanishiga sabab bo'ldi. Ma'lumotlarga qaraganda, bu mamlakatlarda ishga yaroqli umumiy aholining o'rtacha 70% dan ko'prog'i shu sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy sohaning paydo bo'lishi va kelajakda rivojlanishi uning ijtimoiy mehnat taqsimotidagi o'rnining mustahkamlanib borishida va mamlakat iqtisodiy o'sishida sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu sohalarning maxsuslashishi, yiriklashishi, yangi tarmoqlarning tashkil topishi iqtisodiyotni boyitgan holda ishlab chiqarish darajasining o'sishini ta'minlaydi. Shu o'rinda biz, mustaqillik yillarida Qashqadaryo vohasida ijtimoiy soha taraqqiyoti tarixiga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

Qashqadaryo vohasida miloddan avvalgi asrlarda vujudga kelgan, yoshi jahonning eng qadimgi manzillari bilan bo'ylashadigan shaharlar bor. Shahrisabz va Qarshi ana shunday shaharlardandir. Shahrisabz va Qarshining 2700 yillik yubileyleri nishonlanishi va ularning ulug' yoshi jahon miqyosida tan olinib, hukumatimiz qaroriga muvofiq bayram sifatida tantana qilingani fikrimizning yorqin isbotidir.

Istiqlol tufayli O'zbekistonda madaniy merosga nisbatan munosabat ijobiy tomonga o'zgardi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarning qutlug' yubileylari o'tkazilib, ulardagi umumbashariy madaniyatning bebaho durdonalari bo'lgan me'moriy obidalar qayta tiklandi. Xuddi shunday navbat o'zining boy tarixi va madaniy merosiga ega bo'lgan Qarshi shahriga ham yetib keldi va shahar yubileyi nishonlandi. Qarshining hozirgi kungacha saqlangan me'moriy yodgorliklari - Ko'kgumbaz, Qashqadaryo ko'prigi, Qarshi hammomi, Sharofboy, Bekmurodboy, Qilichboy, Abdulazizboy madrasalari, Odina jome' masjidi, Qarshi sardobasi, Abu Ubayda bin al-Jarroh ziyoratgoxi va Xonaqo masjidi majmuasi hukumatimiz va xalqimiz ardog'ida. Qarshi shahridagi Ko'kgumbaz masjidi, Qashqadaryo ustiga qurilgan g'ishtko'prik, qadimiy hammom va madrasalar o'zbek me'morchiligining noyob namunalaridan bo'lib, ularning har biri o'z tarixiga ega. Bu obidalar O'zbekistondagi ko'plab tarixiy-madaniy yodgorliklar kabi yuksalishi ulug'vorlik davrlarini ham, e'tiborsizlik va tahqirona tazyiqlarni ham, vayrongarchilik va tushkunlik holatlarini ham boshidan kechirgan.

Xususan, vohada ham aholini ijtimoiy himoya qilish - bu davlatning bevosita aniq maqsadli, aholining normal yashash sharoitlarini ta'minlovchi kafolatlar tizimidir.

Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, keksalikni, mehnatga layoqatliligini yoki boquvchisini yo'qotishni sug'urtalash (pensiya ta'minoti), kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar (bolalar uchun nafaqalar), vaqtinchalik ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ishsizlik nafaqalari), moddiy ta'minlanganligi va xizmatlarini hisobga olgan holda aholining ayrim toifalari uchun imtiyoz va qulayliklar (patronaj xizmatlari ko'rsatish, mahsulot, dori-darmonlarni etkazib berish va h.) berish, onalikni himoya qilish (tug'ruqqacha va tug'ruqdan keyingi mehnat ta'tillari), salomatlikni sug'urtalash (vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqalari), ta'lim olayotgan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash (stipendiyalar), nogironlikning oldini olish va mehnat qobiliyatini tiklash (nogironlarni rehabilitatsiya qilish, protez-ortopedik markazlar) tizimi orqali ta'minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat qonunlar va qonunosti hujjatlar tizimi orqali aholini ijtimoiy himoya qilish darajasini tartibga soladi, eng kam yashash minimumini aniqlaydi va undan kelib chiqqan holda, eng kam oylik ish haqi, ijtimoiy to'lovlar, sug'urta mukofotlari va ijtimoiy yordam (imtiyozlar) turlarini belgilaydi, ijtimoiy himoya qilishda ishtirok etuvchi xizmat (idora) larning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - T: Ibn Sino nashriyoti, 2002.
2. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. - Toshkent., 2011.

3. Murodova D.S. Economic geographical factors affecting the formation of city addresses. - *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. November, 2022. - P. 29-34
4. P. R. Qurbonov. Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari. Monografiya. Toshkent "Mumtoz so'z", 2019.
5. Qarshi shahar pasporti. Qarshi, 2018.
6. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12-jild. Toshkent, 2006. 7. Yangiboyev. M. Qashqadaryo viloyati aholi joylashuvi va rivojlanishining regional muammolari. Qarshi, 1998.